

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna BREND POZITSİYALASH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloevich Jurayev YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI	77
Nasulloeva Oydiyoy Saidovna ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ	82
Палвонова Севара Бахромовна MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI	103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH	108
Xusanov Shuxrat Burxanovich FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR	115
Asal Kadirova СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	125
Нигматова Сугдиена Жалолiddин кизи	



SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	131
Komilova Dilafruz Rustam qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna	
O'taganov Fazliddin Isroil o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ	142
Эргашева Файёза Боходир кизи	
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ	146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна	
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O'RNI	154
Matrasulova Feruza Baxodirovna	
YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA HORIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	159
Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich	
ФОРМИРОВАНИЕ РЕЗУЛЬТАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ БЮДЖЕТНЫХ ПРОГРАММ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА И ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	166
Мирзаева Дилдора Иномовна	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKLARI HOLATINI BAHOLASH (DAVLAT BANKLARI MISOLIDA)	174
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	183
Aslanova Dilnoza Fatilloevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHKILOT BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY YONDASHUVLAR VA BAHOLASH METODOLOGIYASI	187
Raxmonova Nilufar Umedovna	
HUDUDIIY IQTISODIYOT TARKIBIIY O'ZGARISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA SANOATLASHUV, XIZMATLAR SEKTORI VA INVESTITSIYALARINING ROLI	196
Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi	
SOLIQ BAZASI TUSHUNCHASI, UNING MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI	201
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KORXONALARNING MOLIVAVIY MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	208
Atadjanova Sevinch Qurbonbayevna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQA TORTISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	214
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNI QO'LLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	222
I.R.Sabirjanova	
OPPORTUNITIES FOR UTILIZING TAX INCENTIVES GRANTED TO SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THEREGIONAL ECONOMY	228
Palvanbayev Umidbek Uktam o'g'li	
MINTAQAVIIY TURISTIK KLASSTERLARNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: IQTISODIY SAMARADORLIK MODELII	233
Kazokova Dilnoza Bobirovna	
KORPORATIV BOSHQARUVNING QURILISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	238
G'iyosov Ilxom Karimovich	



O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TAHLILI	246
Xaitova Gulmira Matsalayevna	
SUV TEJOVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	253
Sangirova Umida Ravshanovna	
МЕТОДЫ СИСТЕМ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ И ПЛАНИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	259
Н. М. Эргашева	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	265
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISHNING O'RNI.....	271
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISHNING O'RNI

Ishbekova Lobar Yunusxonovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali

“Iqtisodiyot” kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-2622-9101

E-mail: ishbekovalobar@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatini ta'minlashda pul oqimlarini samarali boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Unda korxonalarning joriy majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatini belgilovchi asosiy omil sifatida pul mablag'larining shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan oqilona foydalanish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, pul oqimlarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyatini mustahkamlash, moliyaviy barqarorligini oshirish va investitsion jozibadorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyati, pul oqimlari, to'lov qobiliyati, likvidlik, moliyaviy barqarorlik, pul mablag'larini boshqarish, operatsion pul oqimi, investitsion faoliyat, moliyaviy boshqaruv, korporativ moliya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты эффективного управления денежными потоками для обеспечения финансовой стабильности и платежеспособности акционерных обществ. Рассматриваются процессы формирования, распределения и рационального использования денежных средств как основного фактора, определяющего способность предприятий своевременно выполнять свои текущие обязательства. Также разработаны научно-практические предложения и рекомендации по укреплению платежеспособности акционерных обществ, повышению их финансовой стабильности и обеспечению инвестиционной привлекательности за счет совершенствования системы управления денежными потоками.

Ключевые слова: акционерное общество, денежные потоки, платежеспособность, ликвидность, финансовая стабильность, управление денежными средствами, операционный денежный поток, инвестиционная деятельность, финансовое управление, корпоративные финансы.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of effective cash flow management to ensure the financial stability and solvency of joint-stock companies. It examines the processes of formation, distribution, and rational use of cash as the main factor determining the ability of companies to meet their current obligations in a timely manner. It also develops scientific and practical proposals and recommendations for strengthening the solvency of joint-stock companies, increasing their financial stability, and ensuring investment attractiveness by improving cash flow management systems.

Keywords: joint-stock company, cash flows, solvency, liquidity, financial stability, cash management, operating cash flow, investment activities, financial management, corporate finance.

KIRISH

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga solish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha mustahkam huquqiy-me'yoriy baza shakllantirilgan. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlarining tashkil etilishi, faoliyat yuritishi, aksiyadorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, moliyaviy hisobotlarni yuritish hamda korporativ boshqaruv tamoyillarini qo'llash masalalari O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'RQ-370-son¹ Qonuni bilan tartibga solinadi. Mazkur qonun aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv organlarining vakolatlari, jamiyatning moliyaviy faoliyatini tashkil etish, aksiyadorlarning manfaatlarini ta'minlash va axborotlarning ochiqqligini oshirishga qaratilgan huquqiy asoslarni belgilaydi.

1 <https://lex.uz/docs/-2382409>



Shuningdek, korxonalarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayonlari O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RQ-404-son² Qonuni hamda milliy va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida amalga oshiriladi. Mazkur me'yoriy hujjatlar korxonalarda pul mablag'lari harakatini hisobga olish, pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va moliyaviy holatni haqqoniy aks ettirish imkonini beradi. Ayniqsa, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyati, likvidligi va moliyaviy barqarorligini baholashda muhim axborot manbai hisoblanadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish, davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish va ularning moliyaviy samaradorligini oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda ham aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish vazifalari belgilangan. Mazkur jarayonlarda pul oqimlarini strategik rejalashtirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va to'lov intizomini mustahkamlash aksiyadorlik jamiyatlarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim shartlaridan biri sifatida qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyatini ta'minlashda pul oqimlarini boshqarish masalalari moliyaviy menejment nazariyasi va korporativ moliya yo'nalishida keng o'rganilgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur masala korxonaning moliyaviy barqarorligi, likvidlik darajasi, investitsion imkoniyatlari hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda pul oqimlarini samarali boshqarish korxonaning nafaqat joriy to'lov majburiyatlarini bajarish qobiliyatini, balki kapital qiymatini oshirish va moliyaviy xavflarni kamaytirish vositasi sifatida ham baholanadi.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan James C. Van Horne va John M. Wachowicz o'zlarining moliyaviy menejmentga oid tadqiqotlarida korxona moliyaviy boshqaruvining asosiy vazifalaridan biri sifatida pul mablag'lari harakatini rejalashtirish va nazorat qilishni ko'rsatib o'tganlar. Ularning fikricha, korxonaning moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan pul oqimlarining muvozanatli tashkil etilishi, ya'ni pul tushumlari va chiqimlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashga bog'liq. Mualliflar korxonaning foyda ko'rsatkichlari yuqori bo'lsa ham, yetarli pul mablag'lari mavjud bo'lmasa, uning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish imkoniyati cheklanishini ta'kidlaydilar³.

E. Brigham va M. Erlhardt korporativ moliya bo'yicha tadqiqotlarida pul oqimlarini boshqarishni korxona qiymatini oshirishning muhim omili sifatida ko'rib chiqadilar. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlarini samarali boshqarish investitsion qarorlarni qabul qilish, kapital tuzilmasini optimallashtirish va aksiyadorlar manfaatlarini ta'minlash imkonini beradi⁴.

MDH mamlakatlari olimlaridan I.A. Blank, V.V. Kovalyov va A.D. Sheremetlarning tadqiqotlarida ham korxonalarda pul mablag'larini boshqarish, likvidlikni ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni baholash masalalari keng yoritilgan. Xususan, I.A. Blank pul oqimlarini boshqarishni korxonaning moliyaviy strategiyasining tarkibiy qismi sifatida baholab, uni shakllantirish, taqsimlash va optimallashtirish jarayonlarini yagona tizim sifatida ko'rib chiqadi⁵.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham korxonalarning moliyaviy barqarorligi, korporativ boshqaruv va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish masalalari muhim yo'nalishlardan biri sifatida o'rganilgan. Jumladan, S.S. G'ulomov, A.V. Vahobov, A.K. Iminov, B.K. Hamdamov kabi olimlarning ishlarida korxonalarda moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish hamda resurslardan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan⁶.

So'nggi yillarda O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarini rivojlantirish, korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish va moliyaviy shaffoflikni oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Ilmiy manbalarda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatini baholashda likvidlik koeffitsiyentlari, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlari, operatsion pul oqimining yetarlik darajasi hamda qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyatlari asosiy mezonlar sifatida ko'rsatib o'tilgan.

² <https://lex.uz/acts/-2931253>

³ Van Horne J.C., Wachowicz J.M. Fundamentals of Financial Management. – 13th Edition. Pearson Education, 2008. – P. 180–195.

⁴ Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory & Practice. – 16th Edition. Cengage Learning, 2020. – P. 120–145.

⁵ Бланк И.А. Финансовый менеджмент: учебный курс. – Киев: Ника-Центр, 2004. – С. 520–545.

Ковалев В.В. Финансовый анализ: методы и процедуры. – Москва: Финансы и статистика, 2002. – С. 210–235.

Шеремет А.Д., Сайфулин Р.С. Методика финансового анализа. – Москва: ИНФРА-М, 2009. – С. 145–170.

⁶ Vahobov A.V., Ibragimov A.K., Ishankulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – Toshkent: Sharq, 2005.

Hamdamov B.K. Korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilish va baholash masalalari. // Iqtisodiyot va ta'lim ilmiy jurnali.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyatini ta'minlashda pul oqimlarini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida korporativ moliya, moliyaviy menejment va korxonalarning moliyaviy barqarorligini baholashga oid zamonaviy ilmiy qarashlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan samarali foydalanish jarayonlarini tizimli ravishda tahlil qilishga asoslandi. Chunki korxonaning moliyaviy natijalari yuqori bo'lishi bilan bir qatorda, real pul mablag'larining yetarli darajada shakllanishi uning to'lov qobiliyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli tadqiqotda pul oqimlarining tarkibi va harakati operatsion faoliyat, investitsion faoliyat hamda moliyaviy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha o'rganildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasining aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari, moliyaviy hisobot standartlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, aksiyadorlik jamiyatlarining yillik moliyaviy hisobotlari hamda mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda pul oqimlarini samarali boshqarish korxonaning to'lov qobiliyati, likvidligi va investitsion imkoniyatlarini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida faqatgina foyda miqdorining yuqoriligi korxonaning moliyaviy jihatdan barqarorligini to'liq ifodalamaydi. Chunki korxona faoliyatining uzluksizligini ta'minlash uchun real pul mablag'larining o'z vaqtida shakllanishi va ulardan oqilona foydalanilishi talab etiladi.

Pul oqimlarini boshqarish jarayonida asosiy e'tibor korxonaga kelib tushayotgan va sarflanayotgan pul mablag'lari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratiladi. Aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlari uch asosiy yo'nalishda shakllanadi: operatsion faoliyatdan keladigan pul oqimlari, investitsion faoliyat bo'yicha pul oqimlari hamda moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimlari. Mazkur oqimlarning o'zaro mutanosibligi korxonaning joriy majburiyatlarini bajarish imkoniyatini oshiradi (1-jadval).

1-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlarining asosiy tarkibi va ularning to'lov qobiliyatiga ta'siri⁷

Pul oqimi turi	Asosiy manbalari	To'lov qobiliyatiga ta'siri
Operatsion pul oqimi	Mahsulot va xizmatlarni sotishdan tushumlar, debitorlik qarzlarning undirilishi	Korxonaning kundalik faoliyat xarajatlarini qoplash va joriy majburiyatlarni bajarish imkoniyatini belgilaydi
Investitsion pul oqimi	Asosiy vositalarni sotib olish, investitsiyalar kiritish, aktivlarni sotish	Korxonaning uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlari va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi
Moliyaviy pul oqimi	Kredit mablag'lari, aksiyalar chiqarish, dividend to'lovlari	Kapital tuzilmasini shakllantiradi va moliyaviy barqarorlikka ta'sir ko'rsatadi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyatini ta'minlashda eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan pul oqimi turi — bu operatsion faoliyatdan shakllanadigan pul oqimidir. Chunki aynan ushbu oqim korxonaning asosiy faoliyati natijasida shakllanadi va ishlab chiqarish xarajatlari, ish haqi, soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Korxonalarda operatsion pul oqimining yetarli darajada shakllanmasligi moliyaviy qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Bunday holatda aksiyadorlik jamiyatlari tashqi moliyalashtirish manbalariga, ya'ni bank kreditlari yoki qo'shimcha aksiyalar chiqarishga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Natijada moliyaviy xarajatlarning oshishi va qarzdorlik yukining ortishi kuzatilishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyatini baholashda pul oqimlari bilan bir qatorda likvidlik ko'rsatkichlarini ham tahlil qilish muhimdir. Quyidagi ko'rsatkichlar korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish imkoniyatini baholashda keng qo'llaniladi (2-jadval).

⁷ Muallif tomonidan korporativ moliya nazariyasi asosida ishlab chiqilgan.

Aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyatini baholashda asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar⁸

Ko'rsatkich nomi	Hisoblash formulasi	Iqtisodiy mazmuni
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	Joriy aktivlar / Qisqa muddatli majburiyatlar	Korxonaning qisqa muddatli qarzlari joriy aktivlar hisobidan qoplash imkoniyatini ko'rsatadi
Tezkor likvidlik koeffitsiyenti	(Joriy aktivlar – Tovar-moddiy zaxiralar) / Qisqa muddatli majburiyatlar	Eng likvid aktivlar hisobidan majburiyatlarni bajarish darajasini ifodalaydi
Operatsion pul oqimi yetarliligi	Sof operatsion pul oqimi / Qisqa muddatli majburiyatlar	Asosiy faoliyat natijasida shakllangan pul mablag'larining qarzlarni qoplash imkoniyatini ko'rsatadi
Sof pul oqimi	Pul tushumlari – Pul chiqimlari	Hisobot davrida pul mablag'larining umumiy o'zgarishini ifodalaydi

Mazkur ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida to'lov qobiliyatini ta'minlash uchun nafaqat mavjud pul mablag'lari hajmini oshirish, balki ularning aylanish tezligini ham optimallashtirish zarur. Xususan, debitorlik qarzdorligini kamaytirish, pul tushumlarini tezlashtirish, ortiqcha zaxiralarni qisqartirish va qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarni samarali boshqarish pul oqimlari barqarorligini oshiruvchi asosiy yo'nalishlar hisoblanadi.

Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlarini boshqarishda pul oqimlarini prognozlash tizimi muhim ahamiyatga ega. Prognozlash orqali korxona kelgusidagi pul yetishmovchiligi yoki ortiqcha mablag'larning yuzaga kelishini oldindan aniqlashi va tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishi mumkin. Masalan, operatsion faoliyatdan tushadigan mablag'larning kamayishi aniqlangan holatlarda xarajatlarni optimallashtirish, investitsion loyihalarni qayta ko'rib chiqish yoki qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlarini boshqarish masalasi korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Amaldagi iqtisodiy islohotlar natijasida korxonalarda moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish hamda investorlar uchun ochiqlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlarda pul oqimlari to'g'risidagi hisobot korxonaning real moliyaviy holatini baholashda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyati bevosita pul oqimlarining barqaror shakllanishiga bog'liq;
- operatsion pul oqimining yetarliligi korxonaning moliyaviy mustaqilligini ta'minlovchi asosiy omildir;
- pul oqimlarini rejalashtirish va prognozlash moliyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi;
- debitorlik qarzdorligini boshqarish va xarajatlarni optimallashtirish pul oqimlari samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Shu sababli aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy pul oqimlarini boshqarish tizimini shakllantirish korxonalarning to'lov qobiliyatini mustahkamlash, moliyaviy barqarorligini oshirish va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyatini ta'minlashda pul oqimlarini samarali boshqarish korxonaning moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning faqat foyda olish darajasi emas, balki real pul mablag'larining shakllanishi, ulardan oqilona foydalanish hamda majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish imkoniyati uning moliyaviy holatini baholashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlarini boshqarish jarayonida mavjud ayrim muammolar, jumladan, pul tushumlari va chiqimlari o'rtasidagi nomutanosiblik, debitorlik qarzdorligining ortishi, qisqa muddatli majburiyatlarning ko'payishi hamda pul mablag'larini prognozlash tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi aniqlandi. Mazkur holatlar korxonalarning likvidligi va to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu asosda aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:



- pul oqimlarini strategik va operativ rejalashtirish tizimini takomillashtirish;
- operatsion pul oqimlarini oshirish mexanizmlarini kuchaytirish;
- pul oqimlari ustidan ichki nazorat tizimini rivojlantirish;
- moliyaviy tahlil tizimida pul oqimlari ko'rsatkichlaridan keng foydalanish;
- raqamli moliyaviy boshqaruv vositalarini joriy etish.

Umuman olganda, aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlarini samarali boshqarish nafaqat joriy to'lov qobiliyatini ta'minlash, balki korxonaning investitsion jozibadorligini oshirish, moliyaviy xavflarni kamaytirish va uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash imkonini beradi. Shu bois pul oqimlarini boshqarish tizimini takomillashtirish aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 2014-yil 6-may, O'RQ-370-son. <https://lex.uz/docs/2382409>
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 2016-yil 13-aprel, O'RQ-404-son. <https://lex.uz/docs/2931253>
3. Van Horne J.C., Wachowicz J.M. Fundamentals of Financial Management. – 13th Edition. – Pearson Education, 2008. – 744 p. <https://www.pearson.com/>
4. Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory & Practice. – 16th Edition. – Cengage Learning, 2020. – 1184 p. <https://www.cengage.com/>
5. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. – 13th Edition. – New York: McGraw-Hill Education, 2020. – 1024 p. <https://www.mheducation.com/>
6. Бланк И.А. Финансовый менеджмент: учебный курс. – Киев: Ника-Центр, 2004. – 656 с.
7. Ковалев В.В. Финансовый анализ: методы и процедуры. – Москва: Финансы и статистика, 2002. – 560 с.
8. Шеремет А.Д., Сайфулин Р.С. Методика финансового анализа. – Москва: ИНФРА-М, 2009. – 208 с.
9. Вахабов А.В., Маликов Т.С. Молия: умумдавлат молияси. – Тошкент: "Иқтисод-молия", 2019. – 600 б.
10. Vahobov A.V., Ibragimov A.K., Ishankulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – Toshkent: Sharq, 2005. – 480 b.
11. Hamdamov B.K. Korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilish va baholash masalalari. // Iqtisodiyot va ta'lim ilmiy jurnali.
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Korxona va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha statistik ma'lumotlar. <https://stat.uz>
13. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) bo'yicha uslubiy materiallar. <https://www.mf.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>